

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR  
VAZIRLIGI  
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**“KIMYO VA KIMYOVIY TEXNOLOGIYANING  
DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI”**

**Ilmiy-amaliy konferensiya**



**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
2023 yil**

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**“KIMYO VA KIMYOVIY TEXNOLOGIYANING  
DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI”**

**Ilmiy-amaliy konferensiya**

**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
2023 yil**

**Tashkiliy qo'mita:**

**Sobirov Bahodir Boypo'latovich**- Professor, texnika fanlari doktori, Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

**Nasridinov Ilhom Burxoniddinovich**– dotsent, texnika fanlari nomzodi, Navoiy davlat pedagogika instituti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

**Yodgorov G'ayrat Ro'ziyevich**- dotsent, fizika-matematika fanlari nomzodi, Navoiy davlat pedagogika instituti o'quv ishlari bo'yicha prorektori

**Shodiyev Xamza Ro'ziqulovich**- o'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i

**Jumaboyev Bahodir Yerejepovich**- dosent, biologiya fanlari nomzodi, Navoiy davlat pedagogika institutining Tabiiy fanlari fakulteti dekani

**Xamroyev Kamolliddin Shaxobiddinovich** - kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori, Navoiy davlat pedagogika instituti Kimyo kafedrası mudiri

**Karimova Dilorom Amonovna**- Navoiy davlat pedagogika instituti Kimyo kafedrası professori, kimyo fanlari nomzodi

**Xatamova Muhabbat Sattarovna** - Navoiy davlat pedagogika instituti Kimyo kafedrası dotsenti, kimyo fanlari nomzodi

**Yangiboyev Saparkul** - Navoiy davlat pedagogika instituti Kimyo kafedrası dotsenti, kimyo fanlari nomzodi

**Sultonov Shavkat Abdullayevich** - Navoiy davlat pedagogika instituti Kimyo kafedrası dotsenti, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori

**Axadov Mamurjon Sharipovich**- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, Navoiy davlat pedagogika instituti Kimyo kafedrası katta o'qituvchisi

**Omanov Behruzjon Shuxrat og'li** - texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, Navoiy davlat pedagogika instituti Kimyo kafedrası katta o'qituvchisi

iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va kimyo sanoatini rivojlanishning yangi bosqichiga olib chiqish imkonini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Asanov G.R., Nabixonov M., Safarov I. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo'g'rofiyasi. -T.: O'qituvchi, 2014.
2. Мильнер, Б. Инновационное развитие. Экономика, интеллектуальные ресурсы, управление знаниями / под ред. Б. Мильнера. - М.: Инфра-М, 2010. - 624 с.
3. Системные инновации как условие становления экономики устойчивого развития - Де-По, 2012. - 326 с.
4. Kevin Roebuck, Innovation Management: High-impact Emerging Technology - What You Need to Know: Definitions, Adoptions, Impact, Benefits, Maturity, Vendors / Kevin Roebuck. - Tebbo, 2011. - 248 p.
5. Thomas H. Davenport, Strategic Management in the Innovation Economy: Strategic Approaches and Tools for Dynamic Innovation Capabilities / Thomas H. Davenport, Marius Leibold, Sven Voelpel. - Wiley VCH, 2006. - 444

### **FTORTUTGAN $\beta$ -DIKARBONIL BIRIKMALAR ATSLIGIDRAZONLARINING BIOLOGIK FAOLLIGINI KOMPUTER DASTURI YORDAMIDA BASHORAT QILISH**

*Q.G. Avezov, B.B. Umarov, G.Q. Xoliqova, B.Sh. Ganiyev*

*Buxoro davlat universiteti*

Biz sintez qilgan va tuzilishini o'rgangan organik ftorli moddalarning biologik faolligini PASS – komputer dasturi yordamida bashorat qilindi. Bu dastur PASS (Prediction Activity Structure Substances – Moddalarning tuzilishiga asosan faolligini bashorat qilish) Rossiyalik olimlar V.V. Poroikov hamda D.A. Filimonovlar tomonidan yaratilgan. 2000-yildan beri ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilarga Internet orqali kimyoviy birikmaning strukturaviy formulasi asosida biologik faollik spektrining prognozini olish imkonini beruvchi veb-xizmat faoliyat ko'rsatmoqda. Chiqarish ma'lumoti sifatida foydalanuvchi har bir faoliyat turining mavjudligi ehtimoli Pa va Pi diapazonida qiymatlarni qabul qilishi mumkin bo'lgan har bir faoliyat turining yo'qligi ehtimolini noldan birgacha baholash bilan bashorat qilingan faoliyat turlari ro'yxatini oladi. Pa va Pi ehtimolliklari mos ravishda birinchi va ikkinchi ustunlarda beriladi). Ularni bashorat qilingan birikmaning "faol" va "nofaol" moddalarning sinflariga mansubligi ko'rsatkichlari sifatida ham ko'rish mumkin. Pa va Pi ehtimolliklarining barcha talqinlari ekvivalent va prognoz natijalarini tahlil qilish uchun foydalidir.

Muayyan faollik uchun Pa qiymati qanchalik katta bo'lsa va Pi qiymati qanchalik kichik bo'lsa, tajribada ushbu faollikni aniqlash imkoniyati shunchalik katta bo'ladi. Agar faollikning bashorat qilingan qiymati tahlil qilganda, tadqiqot uchun Pa > 90% bo'lsa, haqiqatan ham birikmani faol deya olamiz va teskari prognozlar ehtimoli ahamiyatsiz; Pa > 80% bo'lganda teskari prognozlar ehtimoli yuqori bo'ladi; nihoyat, Pa = Pi uchun birinchi va ikkinchi turdagi xatolar ehtimoli teng. PASSda qo'llaniladigan matematik algoritm maqsadli tahlil qilish va shunga o'xshash muammolarni hal qilish uchun ko'p sonli turli usullarning samaradorligini taqqoslash orqali tanlangan. PASS tizimini amaliy qo'llash uchun 85% bashorat qilishning aniqligi etarli, chunki 780 turdagi faoliyatdan birini tasodifiy taxmin qilishning kutilayotgan ehtimoli taxminan 0,1% ni tashkil qiladi.

PASS dasturi yordamida biz ftotutgan halqali 1,3-diketonlar atsilgidrazonlarining biologik faolliklari o'rganildi. 2-Perftoratsilsiklopentanon benzoilgidrazonlarining biologik faolligi o'rganilganda amin degidrogenaza ingibitori, og'riq qoldiruvchi, nootropik faollikni namoyon qilishi aniqlandi. CF<sub>3</sub>-, C<sub>2</sub>F<sub>5</sub>- va C<sub>3</sub>F<sub>7</sub>-o'rinbosarlar qatorida og'riq qoldiruvchi faolligi 79,7% dan 76,7% gacha kamayadi, amin degidrogenaza ingibitorligi esa mos ravishda 77,4; 61,6 va 55,5% ni tashkil etadi. 2-Perftoratsil-siklogeksanon benzoilgidrazonlari yuqori darajada ichakning yallig'lanish kasalligini davolash, antiasmatik, antiaritrik faollikni namoyon qilishi aniqlandi. Ichakning yallig'lanishiga qarshi trifloratsetilsiklogeksanon benzoilgidrazoni – 93,45%; pentaftorpropionilsiklo-geksanon benzoilgidrazoni– 94,1%; heptaftorbutirilsiklogeksanon

benzoilgidrazoni 93,8% faollikni namoyon qilishi aniqlandi. Antiaritrik faollik esa tegishli 86,8; 87,5; 79,9% ni, antiastmatik faollik – 82,3; 95,1 va 91,9% ni, antipsoriatik faollik – 83,3; 87,4 va 85,4%ni tashkil qiladi. Bundan tashqari penta-ftorpropionilsiklogeksanon benzoilgidrazoni– 79,4%; heptaftorbutirilsiklo-geksanon benzoilgidrazoni – 77,2% dermatologik faollik namoyon qildi. Triftormetil, pentaftoretil, heptaftorpropil-radikallari tutgan siklogeptanon benzoilgidrazonlari yuqori darajada ichak yallig`lanish kasalligigga qarshi (94,2; 94,1; 93,8), antiastmatik (91,9; 95,1; 91,9), antiaritrik (89,8; 87,5; 79,9), antipsoriatik (86,1; 87,4; 85,4), dermatologik (77,4; 79,4; 77,2) faolliklarni namoyon etadi.

Ushbu ftortutgan  $\beta$ -dikarbonil birikmalar atsilgidrazonlarining molekulyar dokingi ham o`rganilgan bo`lib, keyingi tadqiqot natijalari bayonida ularning 3QPC oqsiliga va Fusarium solani zamburug`iga ta`siri tavsiflanadi.

### Kundalik turmushda kimyo

*Rashidov Dilshod Ergashevich, 1-toifali kimyo fani o`qituvchisi.  
Samarqand vil. Bulung`ur tumani 70-maktab. Chagal-1 mahallasi*

Zamonamiz kundan kunga rivojlanib borayotgan bir paytda kimyo sohasida bir qator yutuqlarga erishsakda, bir qancha muomolar hali ham mavjud. Misol uchun siz avtomobilingizda benzin quyish shahobchasiga kirasizda benzining turli xildagi navlari sotilayotganligini ko`rasiz va pulingizga qarab benzin - 80 benzin-91 benzin-92 va hokozo turini tanlab harid qilasis. Siz o`sha yerda benzining aynan benzin - 80 yoki benzin-91 navi ekanligini qayerdan bilasis . To`g`ri davlat tomonidan belgilab qo`yilgan deyishingiz mumkin. Lekin baribir inson omilini hisobga olishimiz kerak, balki sizni aldab sotayotgan bo`lsachi, yoki bundan tashqari qaz quyish shahobchalarida quyilayotgan gaz sifatini olsak haqiqatdan ham sifatli gazni yoki qo`shimcha havo ham qo`shilyaptimi. shuni sifatini tekshirishni zamonaviy oddiy usullarini yaratishimiz va o`sha avtomobilning ko`p yillar davomida sizga xizmat qilishligini tamillashimiz kerak.Masalan aholi gazini sof holdagi gaz yoki gazga havo aralashganligini tarozida o`lchab bilish mumkin .Sof gaz bilan to`ldirilganligi og`irligi boshqa havo aralashganligi og`irligi boshqacha bo`ladi . Bu maqolani yozishimda maqsad faqat avtomobil zavodlarini sifatsiz avtomobil ishlab chiqarish bilan ayblaydigan insonlarga ayb faqat avtomobilda emas unga quyiladigan yoqilg`I tarkibiga ham bog`liqligini eslatib o`tmoqchiman.

Qo`shnimizning 2022-yil iyul oyida avtomobil salonidan harid qilib olingan damas rusmli avtomobili bor.Kirib kelgan 2023-yil qish mavsumi qattiq kelganligi uchun metan gaz shahobchasi ishlamaganligi uchun benzin quyish shahobchalaridan benzin-80 navli benzininga turli xil qo`shimchalar qo`shilganligi sabab avtomobil motori moy yeydigan , va tutaydigan bo`lib qoldi.Buning sababi aslida benzin-80 navli benzininga qo`shimcha kondensat quyilib sotilayotganligi bo`lsa kerak deydi ba`zi avtomobil ustalari.

F.I.Sh:	Rashidov Dilshod Ergashevich
Seksiya:	7
Tezis nomi:	Kundalik turmushda kimyo
Ish joyi manzili:	Samarqand vil. Bulung`ur tumani 70-maktab. Chagal-1 mahallasi
Lavozimi	O`qituvchi
Ilmiy daraja va unvoni:	1-toifali o`qituvchi
Telefon raqami:	+998944741280
e-mail:	dilshodrashidov279@gmail.com

	<b>QORISHMALARI TAYYORLASH UCHUN TO'LDIRUVCHI SIFATIDA FOYDALANISH</b> <i>ZOKIROV X.T<sup>1</sup>, ABDULLAYEV O.G<sup>2</sup></i>	
437.	<b>KIMYOVIY JARAYONLARDAN OQILONA FOYDALANISH</b> <i>Tursuntosheva Mohigul Hikmatullayevna</i>	731
438.	<b>ХИМИЧЕСКАЯ ПРОМЫШЛЕННОСТЬ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: ПРОБЛЕМЫ, ПРЕПЯТСТВУЮЩИЕ РАЗВИТИЮ ХИМИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ</b> <i>Мирзакулова Ирода Кодировна, Холмунинова Дилором Анваровна,</i>	733
439.	<b>SULFOALYUMINAT ASOSIDAGI DEKORATIV SEMENTLAR, ULARNING QATTIQLASHUV JARAYONLARI.</b> <i>Qodirova Gulchehra Yuldashevna</i>	734
440.	<b>KIMYO SANOATI KORXONALARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI</b> <i>Abduraxmonova Iroda Sobir qizi</i>	736
441.	<b>FTORTUTGAN <math>\beta</math>-DIKARBONIL BIRIKMALAR ATsilgidrazonlarining biologik faolligini komputer dasturi yordamida bashorat qilish</b> <i>Q.G. Avezov, B.B. Umarov, G.Q. Xoliqova, B.Sh. Ganiyev</i>	739
442.	<b>Kundalik turmushda kimyo</b> <i>Rashidov Dilshod Ergashevich</i>	740
443.	<b>BUG'DOY (<i>Triticum aestivum L.</i>) TARKIBIDAGI BENZ[A]PIRENNI YuSSX USULIDA ANIQLASH</b> <i>Tursunov M.R, U.K. Abduraxmanova</i>	741
444.	<b>Pomidorlarda antioksidant vitaminlarni yuqori samarali suyuqlik xromotografiyasida aniqlash.</b> <i>F.X. Ibragimov, N.Sh. Hazratov</i>	742
445.	<b>СИНТЕЗ И СВОЙСТВА БИМЕТАЛЛИЧЕСКОГО ЭЛЕКТРОКАТАЛИЗАТОРА ФОСФИДА Ni-Co-P ДЛЯ ГЕНЕРАЦИИ ВОДОРОДНОГО ТОПЛИВА</b> <i>Рашидова К.Х., Каттаев Н.Т., Акбаров Х.И.</i>	747
446.	<b>Ni/ Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub> нанокатализаторнинг физик-кимёвий хоссалари</b> <i>Б.М.Абдуллаев</i>	749
447.	<b>The Role of Succinic Acid in the Body of Plants</b> <i>A.R. Axmedov O'.Q. Abdurahmonova</i>	751
448.	<b>Говакли алюминий оксид асосидаги наноккомпозит материалларнинг олиниши ва хоссалари</b> <i>Б.М.Абдуллаев</i>	752
449.	<b>ПЕРСПЕКТИВНЫЕ НАНОКОМПОЗИЦИОННЫЕ МАШИНОСТРОИТЕЛЬНЫЕ МАТЕРИАЛЫ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ НАНОСТРУКТУРНЫХ КЛАСТЕРОВ</b> <i>Бозоров О.Н, Дусткобилев Э., Рахматов Э.А., Зиямухамедова У.А</i>	754
450.	<b>MAHALLIY SHIQINDILAR ASOSIDA MUQOBIL YO'L BITUMINI OLISH</b> <i>Raximov Bekzod Baxtiyorovich, Adizov Bobirjon Zamirovich</i>	759
451.	<b>MUQOBIL YO'L BITUMINING ASOSIY SIFAT KO'RSATKICHLARI</b> <i>Raximov Bekzod Baxtiyorovich, Adizov Bobirjon Zamirovich</i>	760
452.	<b>Сода саноати чикиндиларини қайта ишлаш асосида янги махсулотларни олиш.</b> <i>Умиров Ф. Э., Номозова Г. Р., Мажидов Х.Б., Ҳамидова Г.О.</i>	762
453.	<b>ION-SELEKTIV ELEKTRODLARGA NANOZARRACHALI</b>	763